

ERKIN IQTISODIY ZONA: IMTIYOZ VA PREFERENSIYALAR

Ro'ziyev Oybek Abdumo'minovich

I.f.d. PhD

Eshqobilov Sherzod Normamatovich

TerDU magistri

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yana ham kengaytirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar hududida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarga mamlakat qonunchiligiga ko'ra berilayotgan soliq va bojxona imtiyozlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zona, maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonalar, preferensiyalar, investor, investitsiya, mol-mulk solig'i, yer solig'i, foyda solig'i, bojxona imtiyozlari va boshqalar.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarni mahalliy mineral-xomashyo resurslarni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamонавија korxonalar tashkil etish, respublika hududlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asnoda yangi ish o'rinnari yaratish va aholi daromadini oshirish uchun xorijiy, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim omili sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalaga ijobjiy natijaga erishish mumkin.

Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes subyektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jahatdan tartibga solish lozim".

Sh.M.Mirziyoyev

EIZ faoliyatini tartibga soladigan mustahkam qonunchilik va me'yoriy baza yaratildi, ularni rivojlantirish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashadigan keng ko'lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar tizimi shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faolashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4853-sون Farmoniga asosan maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga ba'zi soliqlar uchun imtiyozlar, shuningdek soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuniga asosan o'rnatilgan tartibda bojxona to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llash xususiyatlari ko'zda tutilgan.

Soliq kodeksi bilan maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, mol-mulk solig'idan, yer solig'idan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan muddatga ozod qilish tarzida soliq imtiyozlari berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 iyundagi "Alovida soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish to'g'risida" PF-6011-son Farmoniga asosan 2020 yil 1 oktabrdan boshlab, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga Soliq kodeksi va "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonunda belgilangan tartibda alovida soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4853-son Farmoni bilan EIZ ishtirokchilari yer solig'i, foya solig'i, yuridik shaxslar mulk solig'i, aylanmadan olinadigan soliqdan kiritgan investitsiya hajmiga mutanosib ravishda 3 yildan 10 yil muddatgacha ozod qilingan.

O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'RQ-604-son Qonunning 48-modasiga muvofiq EIZlar hududida mazkur Qonun kuchga kirgunga qadar (17.05.2020 yil) ro'yxatga olingan va investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan ishtirokchilar uchun qonun hujjalarda nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiyalar ular taqdim etilgan muddat o'tguniga qadar (3 yildan 10 yil muddatgacha) saqlab qolinishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 473-moddasida maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solish shartlari keltirilgan.

Jumladan, Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, mol-mulk solig'idan, yer solig'idan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan muddatga ozod qilish tarzida soliq imtiyozlari beriladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari foya solig'ini to'lashdan o'zi kiritgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yil muddatgacha ozod qilingan.

Mazkur soliq imtiyozlari faqat investor (investorlar) va Maxsus iqtisodiy zona direksiyasi o'rtaida tuzilgan Maxsus iqtisodiy zona hududiga investitsiya kiritish to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining faoliyati turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Ma'lumot uchun: 2020-2021 yillarda EIZlarda ro'yxatdan o'tgan korxonalar tomonidan qariyb 242,2 mlrd.so'm miqdorida foya solig'i bo'yicha imtiyozdan foydalangan.

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa soliqlar bo'yicha imtiyozlardan Soliq kodeksiga muvofiq foydalaniladilar.

Soliq imtiyozlarining amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining guvohnomasi olingan kundan e'tiboran hisoblab chiqariladi.

Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarning amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona hududida ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) ob'ekti foydalanishga qabul qilingan sanadan e'tiboran hisoblanadi.

Maxsus iqtisodiy zonaning ishtirokchisi maqomidan mahrum etilganda tadbirkorlik sub'ekti maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga beriladigan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalardan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum etilgan oyning birinchi kunidan e'tiboran foydalanishga haqli emas.

Agar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi investitsiyalar hajmini soliq imtiyozlarining uzoqroq amal qilish muddatini nazarda tutadigan miqdorgacha oshirsa, u investitsiyalarning haqiqiy hajmiga muvofiq soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini uzaytirishga haqli. Bunda, agar investitsiyalar hajmining oshishi imtiyozlarning avvalgi amal qilish muddati tugaganidan keyin amalga oshirilsa, soliq imtiyozlari imtiyozlarning uzoqroq amal qilish muddatiga bo'lgan huquq yuzaga kelgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e'tiboran qo'llaniladi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda EIZ faoliyatini tartibga soladigan mustahkam qonunchilik va me'yoriy baza yaratilgan. Ularni rivojlantirish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashadigan keng ko'lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar tizimi joriq qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faolashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4853-son Farmoni 26.10.2016 lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
2. O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni O'RQ № 604-son 17.02.2020 yil lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alovida soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish to'g'risida" PF-6011-son Farmoni 19.06.2020 yil lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 28.12.2018 yil gov.uz O'zbekiston Respublikasi hukumati portalni
5. O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi (yangi tahriri) lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
6. [6. https://soliq.uz/](https://soliq.uz/) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi
7. [7. https://uza.uz](https://uza.uz) O'zbekiston Milliy axborot agentligi ma'lumotlar bazasi

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-5 (30-May)**

8. <https://sez.gov.uz> O'zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining yagona portal